https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qo‘qon davlat universiteti
Gumanitar fanlar va tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
Talaba: **Nomozaliyeva Hilolaxon**
nomozaliyevahilola@gmail.com

ERKIN A’ZAM ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT MUAMMOLARINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam asarlarida zamonaviy jamiyat muammolarining yoritilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda adibning “Jannat o‘zi qaydadir” dramatik asari tahlil qilingan. Tadqiqotda adabiyotning millat ma’naviyati va tafakkuri rivojidagi o‘rni ta’kidlanadi, shuningdek, Erkin A’zamning o‘zbek nasrida o‘ziga xos uslubga ega ijodkor ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada yozuvchining ijodiy merosi inson ruhiy olami, jamiyatdagi o‘zgarishlar va ma’naviy inqirozlarni real voqealar orqali badiiy ifodalashi bilan ajralib turishi aytiladi.

Kalit so‘zlar. adabiyot, jamiyat, ma’naviyat, vatanparvarlik, qanoat, milliy qadriyat, o‘zlikni anglash

Annotation. This article is dedicated to the illumination of contemporary societal issues in the works of the People's Writer of Uzbekistan, Erkin A'zam, specifically featuring an analysis of the author's dramatic work, “Jannat o‘zi qaydadir” (Where is Paradise Itself). The study underscores the crucial role of literature in the development of the nation's spirituality and intellect, while also highlighting Erkin A’zam’s distinctive style within Uzbek prose. The paper asserts that the writer's creative legacy is distinguished by its vivid artistic representation of the human psyche, societal transformations, and spiritual crises through realistic events.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Keywords. Literature, Society, Spirituality (or Morality), Patriotism, Contentment (or Temperance), National Values, Self-awareness (or Self-cognition).

Har bir davrda millat kamolotini belgilovchi mezonlardan biri — uning adabiy merosi va hozirgi adabiy jarayonlardir. Agar jamiyatda adabiyotga e'tibor yuqori darajada bo'lsa, bu xalqning tafakkuri, didi, ma'naviyati rivojlanayotganidan dalolat beradi. Adabiyot orqaligina inson o'zini, zamonini va jamiyatdagi o'rnini chuqur anglay oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalaridan birida, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", deya ta'kidlagan edi[1]. Darhaqiqat, bugungi globallashuv sharoitida insonlar ongiga turli madaniy oqimlar ta'sir ko'rsatmoqda. Shu vaziyatda milliy adabiyot xalqni o'z ildizlariga, qadriyatlariga qaytaruvchi, milliy g'urur va o'zlikni saqlovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot inson qalbiga ta'sir etishning eng kuchli vositasi bo'lib, u orqali jamiyatda ma'naviy uyg'onish, ezgulik va insonparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Bunga misol qilib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning asarlarini aytishimiz mumkin.

XX asrning 70-yillarida adabiyotga kirib kelgan Erkin A'zam nafaqat yozuvchi, balki tanqidchi, kinossenarist, publitsist, kinodramaturg va muharrir sifatida ham faoliyat yuritgan ijodkordir. U Surxon vohasidan yetishib chiqqan adabiyot namoyandalarining eng yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. O'zbek nasrida Erkin A'zam o'ziga xos uslub va badiiy dunyoqarashi bilan ajralib turadi; uning ijodiy merosi nihoyatda boy va rang-barangdir. Yozuvchilar orasida "Erkin

[1] https://yuz.uz/uz/news/ezgu--goyalardan--bunyod-bolgan-muazzam--xiyobon .

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

A’zam so‘zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor!”[2] deya ta’riflangan. Rostdan ham uning asarlari xalqchil, sodda, bir o‘qishda tushunilishi oson. Adibimizning ijodiy faoliyati juda keng qamrovli bo‘lib, ushbu maqola uning dramatik asarlaridan “Jannat o‘zi qaydadir” qissasi tahlili ustida boradi.

Adibning “Jannat o‘zi qaydadir” asari haqida ham so‘z olib borar ekanmiz bu borada filologiya fanlari doktori Umarali Normatov shunday fikrlarni bildiradi: “Kitobga kirgan asarlarning hammasi ayni kunlarimiz, shu kundagi odamlarning - zamondoshlarning qismati, dardi dunyosi, ularni qiynayotgan hayot, turmush muammolari ustida bahs etadi, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tish davri zamondoshlar jamiki ziddiyatlari va og‘riqlari bilan ko‘z oldingizda baralla gavdalanadi”[3].

Dramatik asarlar sahna yoki kino uchun yoziladigan ijod mahsuli hisoblanadi. Bunday asarlarda sahna ijrosi va rejissura muhim rol o‘ynaydi. Sahna ijrosi asarning qanday qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Rejissura, aktyorlar va sahna dizayni asarning vizual va emotsional ta’sirini kuchaytiradi. Sahna ijrosida aktyorlarning o‘zaro munosabatlari, ularning ifodalari va harakatlari asarning mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli, sahna ijrosini tahlil qilishda aktyorlarning ijrosi, sahna harakatlari va sahna dizaynining ahamiyatini inobatga olish zarur. Dramatik asarlarni tahlil qilishda kontekstual yondashuv ham muhimdir. Asar yozilgan davr, muallifning shaxsiy hayoti va ijtimoiy sharoitlar asarning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Asarning tarixiy va madaniy konteksti tahlil jarayonida e’tiborga olinishi kerak.

Erkin A’zamning ijodi zamonaviy hayotning murakkab tomonlarini badiiy ifoda etishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida inson ruhiy olami, jamiyatdagi o‘zgarishlar va ma’naviy inqirozlar real voqealar orqali yoritiladi. Yozuvchi hayotni umumiy, mavhum shaklda emas, balki hayotiy holatlar va aniq obrazlar orqali tahlil qiladi. Masalan, “Suv yoqalab”, “Qarzdor”, “Jannat o‘zi qaydadir” asarlari to‘laligicha maishiy hayot manzaralaridan iborat epizodlarga

[2] Erkin A’zam so‘zni his qilgan, uning tarjimai holini biladigan ijodkor!
[3] Normatov U.Yangi asr odamlari//"O'zbekiston adabiyoti va san'ati "gazetasi,2009 -yil 22-son.4-bet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘ysundirilgan. Bolta Mardon, Bahrom muallim, Domla kabi asosiy qahramonlarning iroda yo‘nalishi, hayotiy aqidalari, dunyoqarashi, ma’naviy qiyofalari, oilaviy sharoitdagi munosabatlarda reallashadi.

Erkin A’zam asarlari o‘quvchini o‘z zamonasining ruhini, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni chuqur anglashga undaydi. Adib o‘z asarlari orqali bugungi kunda dolzarb bo‘lgan boriga qanoat qilmaslik, ta’ma, mol-mulkka ruju qo‘yish, ma’naviy bo‘shliq va shaxsiy manfaatparastlik kabi illatlarni fosh etadi. Shu tariqa yozuvchi o‘quvchini o‘ylashga, o‘z hayoti va jamiyatdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga chorlaydi. Xususan, Erkin A’zamning “Jannat o‘zi qaydadir” asarida domla obrazida eski tuzumdan qolgan, yangicha hayotga moslasha olmayotgan inson fojiasi ochib beriladi. U butun umrini soxta mafkuraga bag‘ishlab, shu yo‘l bilan olimlik darajasiga erishgan. Ammo mustaqillik davrida bu qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Domlaning xotini Xonim (Bibirobiya) esa yangi davr talabiga moslashgan, tadbirkor, fan nomzodi ayol sifatida gavdalanadi. Shu oila misolida yozuvchi sobiq sho‘ro davrining inson ruhiyatida qoldirgan “asoratlari”ni ko‘rsatadi. Ularning farzandlari ham tilida, xulq-atvorida o‘sha davr tarbiyasining izlari sezilib turadi. Domla o‘z e’tiqodi va dunyoqarashi tufayli yangi zamon talablariga moslasholmaydi. Xotini aytganidek: “Sizning davringiz o‘tdi, domla!” — bu so‘zlar domlaning hayotiy fojiasini ifodalaydi. Oila xorijda “jannat” izlab Amerikaga ko‘chmoqchi bo‘lganida, domla ota yurti Jiydaliga ziyorat bahonasida ketib, u yerdan qaytmaydi. U xotiniga yozgan xatida butun umr ishonib kelgan aqidalarining asossizligini tan oladi, hayoti va xatolarini iqror etadi. Asarda o‘tish davrining murakkabligi, insonlarning boylik va hashamat ilinjida o‘z yurtini tashlab ketishi, qadriyatlar tanazzuli chuqur ifodalangan. Domla esa o‘z e’tiqodiga sodiq, lekin zamon bilan hamnafas bo‘la olmagan inson sifatida tasvirlanadi. Erkin A’zam asarlarida hozirgi zamon jamiyatidagi dolzarb masalalar ijtimoiy-falsafiy va axloqiy jihatdan chuqur o‘rganiladi. Yozuvchi inson ruhiyatidagi izlanishlar, jamiyat barqarorligining buzilishi va shaxs bilan atrofi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni nozik psixologik tasvir orqali yoritadi. Adibning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

badiiy ustaxonligi hayotni aniq va jonli qahramonlar yordamida umumlashtira olishida ko‘rinadi. Bu usul bilan u o‘quvchilarni real voqelikni chuqurroq tushunishga chorlaydi. Erkin A’zamning ijodiy merosi o‘z davriga xos muhim ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy savollarga badiiy javob bergan ahamiyatli adabiy hodisa hisoblanadi.

Erkin A’zam kinoqissalarida epigraf, izohlar, dialoglar va monologlardan o‘rinli foydalanadi. Bu vositalar asar mazmunini boyitadi va estetik ta’sirchanlikni oshiradi, o‘quvchini asar o‘qish jarayoniga tayyorlaydi. Masalan, “Lyubov Andreevna!.. Agar yana Parijga borgudek bo‘lsangiz, meni ham olib keting, baraka topkur. Men aslo bu yerda qololmayman... O‘zingiz ko‘rib turibsizki, bu yurt g‘irt qoloq, xalqi nodon, to‘pori, buning ustiga — juda zerikirb ketdi odam, ovqatlari ham jonga tekkan... Meni albatta birga olib keting, Xudo xayringizni bersin!” [4].

Asar boshlanishidayoq yozuvchi o‘quvchi yoki tomoshabinni har kuni foydalaniladigan buyumlar va kiyim-boshlarning to‘plami bilan duch keltiradi. “Yengil halinchak-kursi”, “jimjimador ko‘zoynak”, “kalkulyator”, “bahaybat jomadon”, “kiyim-kechak”, “lash-lush”, “yemak stoli” – bularning hammasi, bir tomondan, o‘quvchining e’tiborini tortsa, boshqa tomondan voqea muhitining umumiy kayfiyatiga kirib borish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Keyin esa Xonimning ichki fikrlari beriladi. Ushbu ichki mulohazalarda ham oddiy uy-ro‘zg‘or buyumlari orqali qahramonning kasbi, turmush qarashlari, ruhiy olami, xulq-atvori butun qiyofasi bilan jonlantiriladi.

Yozuvchi asarida oilaviy tortishuvni uch xil dunyoqarash – o‘zbek, amerika va rus mentaliteti – o‘rtasidagi to‘qnashuvga aylantiradi. Xotin butun oilani amerikalik turmush tarziga moslashtirishga intiladi, Domla esa ikkilanib qolganidan so‘ng, nihoyat O‘zbekistonda qolish qarorini qabul qiladi. Shunday qilib, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik hissi “va‘da etilgan farovon hayot”dan ustun chiqadi.

[4] **Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир**. – Т.: «Шарқ», 2007. 69-б

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Oilaviy ziddiyatlarda Moskva universitetida sharqshunoslik bo‘yicha ta‘lim olgan qizlari Klara otasini qo‘llab-quvvatlaydi. Garchi Klara Rossiyada tahsil olgan va rus yigitga turmushga chiqqan bo‘lsa ham, uning ichidagi milliy iftixor, milliy madaniyatga sodiqlik oxir-oqibatda ustunlik qiladi.

Erkin A’zam o‘z asarlarida kundalik turmush buyumlari, ichki monologlar, dialoglar va psixologik tahlillardan mohirona foydalanadi. Bu usullar orqali u qahramonlarning ruhiy olamini, dunyoqarashini va jamiyatdagi o‘rnini to‘liq ochib beradi. Yozuvchining ijodi o‘quvchini o‘ylashga, jamiyatdagi o‘z o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin A’zamning ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. U o‘z asarlari orqali globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni, ma‘naviyatni saqlash va insonning ichki dunyosini anglash masalalarini dolzarb badiiy shakllarda ifodalaydi. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va kelajak avlodlar uchun qimmatli adabiy merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://yuz.uz/uz/news/ezgu--goyalardan--bunyod-bolgan-muazzam--xiyobon.
2. Фролов В. Судьбы жанров драматургии. Москва: «Советский писатель». 1979. – С. 365.
3. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир: Бир йил битиклари (Ҳикоялар, киноқиссалар, драматик асар ва публицистик миниатюралар). – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2007. – 368 б. (бетлар сонини асарнинг ўзидан олиш керак).
4. “Erkin A’zam badiiy olami”: / S. To‘laganova. Yozuvchi ijodida ko‘ngil inqilobi. To‘plam. – T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2014. – B. 71.
5. A’zam E. Jannat o‘zi qaydadir: Hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar va publisistik miniatyuralar. – T.: “Sharq”, 2007. – B. 94.
6. A’zam E. Tanho qayiq: Kinoqissalar. – T.: “Sharq”, 2017. – B. 88
7. Normatov U. Yangi asr odamlari// "O'zbekiston adabiyoti va san'ati "gazetasi,2009 -yil 22-son.4-bet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026